

15. Wu, Y. B. (2010). Leisure activities in Miao ethnic markets and their tourism development—A case study of Fenghuang Miao Market. *Journal of Tongren University*, (2), 78-81. (In Chinese)
16. Yang, Y., & Yan, R. X. (2024). Value co-creation mechanisms in the touristification of traditional urban markets: A case study of Suzhou Shuangta Market. *Human Geography*, 39(5), 34-43. (In Chinese)
17. Zhang, R. T., Guo, Q., Gu, M., & Li, H. (2021). Research on the renewal of traditional wet markets in China from a daily life perspective: A case study of Xi'an Jianguomen Market spatial optimization. *Journal of Human Settlements in West China*, 36(5), 98-103. (In Chinese)
18. Zhou, D. B., & Zhou, J. B. (2006). Market cultural tourism: A new growth pole for cultural tourism in ethnic regions. *Legal System and Economy*, (07X), 105-106. (In Chinese)

SAMARQAND SHAHRIDA JOYLASHGAN XRISTIAN ME'MORCHILIGI YODGORLIKLARI

Abduvohidov Dilshod Narbotirovich,

PhD doktorant,

Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

e-mail: norbotirovich@mail.ru

Annotatsiya: Hozirgi kunda O'zbekistonning turli hududlarida, xususan Samarqandda ham nafaqat Islom diniga balki, Xristianlik diniga oid madaniy-tarixiy yodgorliklar juda ko'p. Ushbu ilmiy maqolada Samarqand shahrida joylashgan xristian diniga oid me'moriy yodgorliklar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Katolik cherkovi, Avliyo Aleksiy sobori, Muqaddas Pokrov (Pokrovskiy) cherkovi, Arman ibodatxonasi. Surb Astvatsatsin, Avliyo Georgiy cherkovi.

Kirish: Dunyoning qadimgi Afina, Rim va boshqa shaharlari o'zining diqqatga sazovor madaniy-tarixiy yodgorliklari bilan zamonaviy jahon madaniyatida alohida o'rin egallaydi. Bu borada O'zbekiston shaharlarining ham jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi munosibdir. Ayniqsa, Samarqandning umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni beqiyos bo'lib, YUNESKO tashkiloti tomonidan «Samarqand — madaniyatlar chorrahasi» sifatida jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi va 2007 yilda shaharning 2750 yillik yubileyi dunyo miqyosida keng nishonlandi. 2019 yilda Samarqandning Jahon sayyohlik shaharlari federatsiyasiga (WTCF) a'zo bo'lishi esa, uning kelajakda jahon turizm markaziga aylanishidan dalolat beradi¹³. Shu bilan birga, Samarqand O'zbekiston va butun dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biridir. Buyuk Ipak yo'li yo'llarini bosib o'tgan tuya karvonlari Samarqanddan o'tgan. Shahar uzoq vaqt davomida poytaxt maqomiga ega bo'lib, uni Amir Temur davrida olgan va faqat XX asr boshlarida yo'qotgan. Bugungi kunda, Samarqandga yuz minglab sayyohlar keladi, uning xalqaro aeroporti har kuni mehmonlarni kutib oladi. 2001-yildan buyon Samarqand UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan¹⁴.


Asosiy qism: Uchta madrasaga ega afsonaviy Registon maydoni, Amir Temurning qabri joylashgan Go'ri Amir maqbarasi, Shohi-Zinda ansambli, Bibixonim, Doniyor payg'ambar maqbarasi va Ulug'bek rasadxonasi shaharning eng ko'p tashrif buyuradigan diqqatga sazovor joylari hisoblanadi. Samarqand o'zbek taomlari va hunarmandchilik ustaxonalari bilan ham sayyohlarni o'ziga tortadi. Shu bilan birga, shaharda bugungi kunda o'zining oldingi qiyofasini yo'qotmagan hamda yanada salobatli ko'rinish berib turgan boshqa diniy yodgorliklar ham bisyor. Chunonchi, shaharning turli hududlarida xristianlik diniga oid sobor hamda cherkovlar (ibodatxonalar) mavjud. [Samarqand](#) ibodatxonalari shahar tarixiy merosining muhim qismi bo'lib, umuman olganda shahardagi milliy jamoalarning dinlari xilma-xilligini o'zida aks ettiradi.

¹³ Iriskulov O.J. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarqandda shahrida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar, Avtoreferat. / Samarqand-2019, 5-b.

¹⁴ <https://www.orexca.com/rus/uzbekistan/samarkand.html>

XIX asrda Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, bu yerga rus harbiy xizmatchilari, rus aholi vakillari ommaviy kela boshlagan. Bundan tashqari, shu davrda imperiyaning g'arbiy qismidagi boshqa xalqlar vakillari ham Samarqandda ko'paya boshlagan. Yangi aholi tufayli shaharda turli dinlarga mansub ibodatxonalar qurila boshlandi. Bugungi kunda Samarqandda joylashgan xristian diniy ibodatxonalari pravoslav, katolik va arman cherkovlariga ifodalanadi.

Katolik cherkovi. Baptist Ioann cherkovi Samarqanddagi yagona katolik cherkovidir. U 1916-yilda Avstriya-Vengriyadan Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan O'rta Osiyoga yuborilgan harbiy asirlar (asosan polyaklar) uchun qurilgan. 1911-yilda Samarqanddagi katoliklar soni 1285 nafarga yetgan hamda katolik jamoati vakillari mahalliy imperiya hukumatidan katoliklarni ibodat qilish uchun joy bilan ta'minlash haqida bir necha bor iltimos qilib chiqishadi¹⁵. Cherkov qurilishi tugallangandan bir necha yil o'tgach, olib kelingan harbiy asirlar o'z vatanlariga qo'yib yuborildi, natijada Samarqandda polyaklar soni keskin kamayib ketadi. Sovet ittifoqi davridagi ateizm siyosati natijasida katolik cherkovi yopiladi va faqat O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan keyingina ya'ni 1997-yilda o'z ibodat qiluvchilari ixtiyoriga qaytarildi. Ushbu katolik cherkovi tashqi qiyofasida ifodali dekorativ elementlarga ega kamtarona interyer mavjud. Derazalari muqaddas diniy kitoblarning sahnalari tasvirlangan vitrajlar bilan bezatilgan. Cherkov me'morchiligida neo-gotik uslub ustunlik qiladi. Mazkur bino tuzilishning asosi g'isht bezaklari bilan bezatilgan minorali baland qo'ng'iroq minorasidir.



16

Avliyo Aleksey sobori. Samarqandda 1500 kishiga mo'ljallangan shahar bosh sobori qurish masalasi birinchi marta 1888 yilda paydo bo'lgan¹⁷. Muhandis Fyodor Verbitskiy tomonidan yaratilgan Aleksey sobori loyihasi shaxsan imperator Nikolay Romanov tomonidan qurilish uchun tasdiqlangan¹⁸. Ushbu ibodatxona avvalo pravoslav harbiylarining diniy ehtiyojlari uchun qurilgan. G. A. Sitovichning Turkiston harbiy boshqarmasiga doir 1913 yil uchun "Armiya va flot ibodatxonalari" to'plamiga doir hisoboti materiallarida: "1910 yildan Samarqand shahrida, butun Samarqand harbiy garnizoni uchun avliyo Aleksey nomiga 150 000 rubldan ortiq pul mablag'lari evaziga yangi mahobatli ibodatxona qurildi" deb ma'lumot beradi¹⁹. Ushbu sobor ham Sovet davridagi ateizm siyosati natijasida yopildi. U faqat 1990-yillarda o'z e'tiqod qiluvchilariga qaytarildi. 1996 yilda cherkov Moskva va Butun Rus Patriarxi Aleksey II tomonidan muqaddas qilingan. O'sha davrdagi diniy binolar orasida sobor eng muqaddasi hisoblangan. Aleksey o'zining kattaligi va shakllarining jiddiyligi bilan har qanday insonni hayratda qoldiradi. Alekseevskiy sobori – neo-rus arxitekturasini shakllarida yaratilgan, ichkaridan katta va baland zal shaklida yaratilgan bo'lib, u kenglik va ulug'vorlik taassurotini uyg'otadi.


¹⁵ <https://sv.zarnews.uz/post/ot-pervoy-kplic-v-tashkente-do-samarkandskogo-kostela>

¹⁶ Maqolada keltirilgan fotosuratlar shaxsan muallifning o'zi tomonidan amaliy tadqiqot ishlari davomida olingan.

¹⁷ Abduvaxidov D.N. "Samarqand shahrida joylashgan Avliyo Aleksey sobori qurilishi tarixi", Qo'qon DPI xabarlar, №4/2024, 77-b.

¹⁸ <https://www.orexca.com/rus/uzbekistan/samarkand.html>

¹⁹ <https://sv.zarnews.uz/post/alekseevskiy-soborvsamarkandesudbaodnogoxrama>



Muqaddas Pokrov (Pokrovskiy) cherkovi. Sovet davridagi ateizm siyosatining qattiq ta'qiblari davrida ham yopilmagan yagona cherkov aynan ushbu Pokrov cherkovi hisoblanadi. Ushbu diniy bino 1904 yilda qurilib muqaddas qilingan va hozirgi kungacha deyarli asl shaklida saqlanib qolgan²⁰. Samarqandda joylashgan boshqa pravoslav cherkovlaridan uning farqli tomoni shundaki, ushbu cherkov birinchi noharbiy cherkov hisoblanib, uning qoshida dastlabki davrlarda bolalar uchun hatto cherkov maktabi faoliyat ko'rsatgan. Cherkov loyihasi muallifi Samarqand viloyati arxitektori Ivan Petrovich Lebedev edi²¹. Bugungi kunga qadar odamlar orasida ushbu me'moriy yodgorlikni qurish uchun asosiy homiylar farzandsiz olijanob er-xotin bo'lganligi haqidagi afsonalar saqlanib qolgan. Cherkovning tom qismida xochlar joylashgan va Bibi Maryam tasvirlangan mozaika bilan bezatilgan ulkan qo'ng'iroq minorasi bor. Bugungi kunda ushbu cherkov o'zining e'tiqod qiluvchilari uchun faoliyat ko'rsatmoqda. Unda xristianlik diniga oid juda ko'plab hayratlanarli va qiziqarli bo'lgan diniy suratlar, piktogrammalar mavjud (shuni alohida ta'kidlash lozimki, Samarqand shahrida oldin mavjud bo'lgan lekin bugungi kungacha yetib kelmagan bir nechta pravoslav cherkovlari ham bo'lgan. Masalan, 1-avliyo Georgiy, muqaddas Aleksandr Nevskiy, avliyo Nikolay qamoqxona cherkovi va hk. Ulardan qolgan diniy anjomlar, suratlar, piktogrammalarning ko'pchiligi bugungi kunda aynan ushbu Pokrov cherkovida saqlanmoqda).



Arman ibodatxonasi. Surb Astvatsatsin cherkovi (Xudoning muqaddas onasi) 1903 yilda Samarqanddagi armanlar jamoasi uchun qurilgan xristian cherkovi bo'lib nafaqat diniy markaz, balki shahardagi armanlarning madaniy merosini saqlovchi bino ham sanaladi. 1906 yilda oddiy ibodat uyi yanada kengaytirilib unda qo'ng'iroq minorasi ham paydo bo'ldi. Shuningdek, cherkov hududida jamoat maktabi ham o'z faoliyatini boshladi va u o'zining birinchi o'quvchilarini qabul qildi²². Ko'p yillar davomida O'rta Osiyodagi yagona arman cherkovi va maktabi 1930-yillar

²⁰ "Samarqand viloyati ma'lumotnomasi", 1905 yil. Samarqand viloyat statistika qo'mitasi nashri. 1905 "Hamkorlik" matbaa sahifasi 48-bet

²¹ Galak A., Galina Y. Samarqand Pokrovskiy cherkovi, "Vostok Svishe" jurnali, №2, 2015-y., 33-b.

²² <https://sv.zarnews.uz/post/samarkand-stolica-velikix-xanov>

oxirida, jamiyatda dinga qarshi tendensiyalarning kuchayishi fonida yopildi. Oradan ko'p o'n yillar o'tib, XX asr oxirida – O'zbekiston suverenitetga erishib, milliy mustaqillikka erishgach, mamlakatda azaliy qadriyatlarining tiklanishi boshlandi. Mamlakat rahbariyati tomonidan olib borilayotgan tizimli milliy siyosat tufayli odamlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoni paydo bo'ldi. 1990-yillar o'rtalarida ushbu arman cherkovining faoliyati tiklandi hamda o'z dindorlari ixtiyoriga qaytarishga muvaffaq bo'lishdi. 1995-yilda cherkov tantanali ravishda muqaddas qilingan va hozirgi kungacha o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Surb Astvatsatsin ibodatxonasi hududida "Luys" (Ray) arman markazi ham faoliyat ko'rsatadi.



Avliyo Georgiy cherkovi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Samarqand shahri tarixida 3 ta Georgiy nomidagi cherkov bo'lgan. Birinchisi, 1868-yilda Samarqand rus qo'shinlari tomonidan egallangandan so'ng qurilgan. U Samarqanddagi eng birinchi qurilgan xristianlik cherkovi bo'lib, asosan xom g'isht va yog'ochdan qurilgan edi. Shu va shaharda yangi pishgan g'ishtdan cherkov qurilishi sababli 1883-yilda buzib tashlandi²³. Ikkinchisi, 1881 yilda kichik samarqandlik muhandis-arxitektor V.M.Lemke 600 kishiga mo'ljallangan, rejasi xoch shaklida bo'lgan va ruscha uslubda yangi cherkov loyihasini tayyorladi. Cherkovining qurilishi tez sur'atlar bilan, o'n oy davomida amalga oshirildi va 1882 yil 20 noyabrda yepiskop Aleksandr (Kulchitskiy) tomonidan muqaddas qilindi²⁴. Ushbu cherkov ham 1920-yillarda Sovet hukumati tomonidan yopildi hamda bino boshqa maqsadlarda foydalanila boshlandi. Ko'p o'tmay yonib ketgan pravoslav qabristoni yaqinida ibodat qiluvchilarga kichik ibodatxona qurish uchun joy berildi. 1937 yilda pravoslav jamoasi ibodatxonaga aylantirilgan xususiy uy sotib olishga muvaffaq bo'ldi. Sovet davrida ibodatxona maqomini olgan cherkov hali ham faol. Cherkovning me'morchiligi klassik usulda emas, chunki u hali ham sobiq xususiy uyda joylashgan. Darvozasi tepasida qo'ng'iroq minorasi bor. Xizmatlar har kuni o'tkaziladi va bolalar uchun yakshanba kuni faoliyat olib boradigan maktab mavjud²⁵.



Xulosa: Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Samarqand nafaqat o'zida musulmon me'morchiligi yodgorliklarini jamlagan, balki unda ko'plab va mahobatli boshqa din jamoalariga

²³ Vavilova T. "Samarqand axborotnomasi" 2015 yil 20 oktyabr, 87-son. "Maxsus bino".

²⁴ Dorofeyev R., Samarqand Alviyo Georgiy cherkovi, "Vostok Svishe" jurnali, №1-2, 2014-y., 9-b.

²⁵ <https://www.orexca.com/rus/uzbekistan/samarkand.html>

tegishli cherkovlar, ibodatxonalar mavjud. Bugungi kunda, Samarqandga tashrif buyurgan sayyohlar shaharni piyoda sayr qilib buni o'z ko'zlari bilan ko'rib hayratlanishmoqda va albatta bu tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iriskulov O.J. (2019). XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarqandda shahrida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar, Avtoreferat. 55-b.
2. "Samarqand viloyati ma'lumotnomasi", (1905). Samarqand viloyat statistika qo'mitasi nashri. "Hamkorlik" matbaa sahifasi 98-b.
3. Vavilova T. (2015). "Samarqand axborotnomasi" 87-son. "Maxsus bino". 79-b.
4. Abduvaxidov D.N. (2024). "Samarqand shahrida joylashgan Avliyo Aleksi sobori qurilishi tarixi", Qo'qon DPI xabarlar, №4. 77-80. <https://www.journal.kspi.uz>
5. Galak A., Galina Y. (2015). Samarqand Pokrovskiy cherkovi, "Vostok Svishe" jurnali, №2, 33-42.
<https://pravoslavie.uz/archdiocese/departement diocese/ePress/Easter/Archive/index.php>
6. Dorofeyev R., (2014). Samarqand Alviyo Georgiy cherkovi, "Vostok Svishe" jurnali, №1-2, 9-19.
<https://pravoslavie.uz/archdiocese/departement diocese/ePress/Easter/Archive/index.php>
7. Samarqand ibodatxonalari.
<https://www.orexca.com/rus/uzbekistan/samarkand.html>
8. Galak A. Toshkentdagi birinchi ibodatxonadan Samarqand cherkovigacha.
<https://sv.zarnews.uz/post/ot-pervoy-kplic-v-tashkente-do-samarkandskogo-kostela>
9. Galak A. Samarqanddagi Aleksievskiy sobori: bitta ibodatxona taqdiri
<https://sv.zarnews.uz/post/aleksievskiysoborvsamarkandesudbaodnogoxrama>
10. Saakov G. Samarqand – "buyuk xonlar poytaxti".
<https://sv.zarnews.uz/post/samarkand-stolica-velikix-xanov>

TURISTIK INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISHDA ZIYORAT TURIZMI RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH: XORIJIY TAJRIBA VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti 2-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: zaynutdinovamuslimakhon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada turistik infratuzilmani rivojlantirish jarayonida ziyorat turizmi resurslaridan samarali foydalanish masalasi yoritiladi. Ziyorat turizmi faqat diniy sayohatlar bilan cheklanib qolmay, balki turistik infratuzilmaning jadal rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Maqolada xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari, xususan, Indoneziya va Malayziya kabi mamlakatlarda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'llanilgan strategiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar, jumladan, raqamli xizmatlar, aqlli infratuzilma, ekologik barqarorlik tamoyillari va zamonaviy transport tizimlarining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekistonda ziyorat turizmi infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari, xorijiy tajribani moslashtirish va milliy turizm sektorini modernizatsiya qilish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, turistik infratuzilma, xorijiy tajriba, innovatsion yondashuvlar, smart turizm, ekologik barqarorlik, raqamli xizmatlar, transport tizimi, shaharsozlik.

Kirish: Ziyorat turizmi bugungi kunda jahon miqyosida eng jadal rivojlanayotgan turizm turlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy o'sish va turizm industriyasini rivojlantirish, balki madaniy merosni asrab-avaylash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston hukumati tomonidan ziyorat turizmini rivojlantirishga